

## O‘QUVCHILARDA KASB TANLASH HAMDA KASBIY SHAKLLANISHNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

*Xolmurodova Nilufar Toxirovna*  
*Surxondaryo viloyati Boysun tumani*  
*57- maktab amaliyotchi psixologi*  
*Ravshanova Ma’mura Zokirovna*  
*Surxondaryo viloyati Boysun tumani*  
*4- maktab amaliyotchi psixologi*  
*Safaraliyev Matlab Norboyevich*  
*Surxondaryo viloyati Boysun tumani*  
*17-maktab amaliyotchi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchilarda kasb tanlash jarayoni, kasbiy shakllanishning psixologik-pedagogik asoslari hamda bu jarayonning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, qiziqish, qobiliyat va motivatsiyaning kasb tanlashdagi roli tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** kasb tanlash, kasbiy shakllanish, o‘quvchi, qobiliyat, qiziqish, motivatsiya, psixologik omillar, ta’lim.

### KIRISH

Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim va mas’uliyatli qarorlardan biri hisoblanadi. Chunki tanlangan kasb shaxsning kelajakdagi hayoti, ijtimoiy mavqei va jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi. O‘quvchi yoshlar uchun kasb tanlash jarayoni ayniqsa muhim bo‘lib, bu davrda to‘g‘ri yo‘naltirish katta ahamiyatga ega.

Kasbiy shakllanish jarayoni shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari va individual xususiyatlari asosida rivojlanadi. Har bir o‘quvchining ichki imkoniyatlarini aniqlash va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish kelajakdagi muvaffaqiyatning asosidir.

Psixologik jihatdan kasb tanlashda qiziqish muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchi o‘ziga yoqqan faoliyatga ko‘proq intiladi va unda yuqori natijalarga erishadi.

Qobiliyat ham kasbiy shakllanishning asosiy omillaridan biridir. O‘quvchining intellektual, ijodiy yoki amaliy qobiliyatlari uning qaysi sohada muvaffaqiyat qozonishini belgilaydi.

Motivatsiya kasb tanlash jarayonida harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Kuchli motivatsiyaga ega o‘quvchi o‘z maqsadi sari intiladi va to‘siqlarni yengib o‘tadi.

Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari kasbiy shakllanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Psixologik testlar, suhbatlar va treninglar orqali o‘quvchilarning kasbiy moyilligi aniqlanadi.

O‘qituvchi va psixolog hamkorligi o‘quvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ular o‘quvchilarga kasblar haqida to‘liq ma’lumot berish va to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam berishlari kerak. Oila ham kasb tanlash jarayonida katta ta’sirga ega. Ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi va farzand qiziqishlarini inobatga olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy shakllanishning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, mehnat faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon 28 standartlari darajasiga ko‘tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og‘ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon-e’tiqodli insonlar bo‘lib voyaga yetishishsin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘rta maktab o‘quvchilarining hammasi kasb tanlashga kelganda oqilona va to‘g‘ri yo‘l tutadi, deb bo‘lmaydi, albatta. Ulardan ba’zilari tavakkalliga ish tutsalar, ayrimlari ota-ona kasbini tanlaydilar yoki ko‘zga tashlanib turgan, yaqqol namunalarga taqlid qiladilar, goho sevimli kishilari izidan borishni mo‘ljallaydilar.

Maktab o‘quvchilarining mayllari, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezgu niyatlari xususan kasbkorga bo‘lgan qiziqishlari, motivlari, intilishlari tug‘ilishi psixologiya fanining shaxs muammosi bilan uzviy bog‘liqdir. Shaxs psixologiyasini o‘rganish o‘quvchilarni kasb tanlashi demakdir. O‘quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo‘llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish to‘g‘risidagi hujjatlarda o‘quvchilarni mustaqil kasb tanlashga (o‘z imkoniyatlarini o‘zi baholash orqali) o‘rgatish juda muhim va zarur vazifa ekanligi ta’kidlanadi.

Shunga ko‘ra psixolog olimlar, metodistlar, tashxis markazi xodimlari keng jamoatchilik bilan birgalikda kasbga doir bilimlarni keng tashviqot qilishlari, kasb-kor tanlashga oid yo‘l-yo‘riqlar va metodlar ishlab chiqishlari, kasb tanlash maslahatlari rasmiy shoxobchalari kengaytirilishi, professiogramma, professiografiya, psixogrammalar ko‘lami orttirilishi lozim. Keyingi yillarda o‘tkazilgan kuzatishlar Respublikamizda yoshlarni kasbga yo‘llash sohasida talay kamchiliklar borligini ko‘rsatdi. Buni biz viloyatlar kesimida hamda Respublika

bo'yicha 9-sinf bitiruvchilariga sohalar bo'yicha tavsiyanomalar berishda ko'rdik. Darhaqiqat, maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarini amalga oshirishdagi dastlabki qadamlar boshlandi. O'ylaymizki, ana shu dastlabki qadam maktablarda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib boruvchi mutaxassis hamda o'quvchilarning kasb-hunarga qiziqishi, moyilligi va layoqatini aniqlash bilan shug'ullanadigan maktab amaliyotchi psixologi shtatlarini tashkil etishdan iborat bo'lishi lozim. Chunki, bu mutaxassislarsiz maktabda mazkur ishlar haqida gapirish ham mumkin emas. Maktabda olib borilayotgan kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarining samarasi bevosita shu ikki mutaxassisning olib borayotgan ishlari ko'lami, ularning saviyasi va malaka ko'rsatkichi hamda faoliyatining aniqligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lishi barchamizga ayondir.

O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasbhunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, perseitiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo'lishi, fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganilishi, to'garak va qo'shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to'g'risida ma'ruzalar o'qilishi, suhbatlar, munozaralar o'tkazilishi zarur. Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. Mehnat psixologiyasi va kasb psixologiyasi predmetlarini farqini aloxida ta'kidlash lozim.

E.A.Klimov, mehnat psixologiyasiga quyidagicha tavsif beradi: mehnat psixologiyasi fan sifatida bu insonning sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatishi va shakllanishi soxasidagi vazifalarni echish usullari, yullari va sharoitlarini o'rganuvchi psixologiya yo'nalishidir. Kasb psixologiyasi shaxsning kasbiy jixatdan shakllanishini o'rganadi. Bunda shaxs rivojlanishi kasbiy shakllanishi sifatida ko'rib chiqiladi. Kasb psixologiyasi-mehnat psixologiyasining kasblarni psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan quyiladigan psixologik talablarni o'rganish xamda ilmiy taxlil qilish bilan shug'ullanuvchi bo'limidan iborat. Mutaxassislikning turli ijtimoiy - madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarida kasbiy xulk muxim axamiyatga ega. Shaxsning psixomotor motivatsion va kognitiv sifatlariga e'tibor berilgan xolda kasbiy yutuqlarga asosiy e'tibor karatiladi.

Kasb psixologiyasining predmetining ta'rifiga asoslanib, uning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofik:

1. Shaxsning kasbiy shakllanishi asosiy tushunchalari va tadkikot tamoyillarini, o'zining faoliyatiga tegishli uslublarini asoslash;

2. Kasb psixologiyasi predmetiga mos bo‘lgan tadqiqot uslullarini ishlab chiqish va o‘ziga xos uslublarini tuzish;
3. Kasblarning tavsifiy tuzilmasini psixologik taxlil qilish, kasblarni proektlash uslublari va tamoyillarini ishlab chikish;
4. Shaxsning kasbiy shakllanishi konuniyatlari va psixologik mexanizmlarini tadqiq etish. Bu jarayon dinamikasini determinantlovchi omillarni aniqlash, kasbiy shakllanishdagi inkirozlarni taxlil etish;
5. Mutaxassislikning kasbiy desturuktsiyalarini, ya’ni shaxsning deformatsiyasi, kasbiy faoliyatga bo‘lgan layokatini pasayishi va boshkalar;
6. Shaxsning kasbiy rivojlanish monitoringni yuritish, bu borada psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish xamda mutaxassislarni attestatsiyadan o‘tkazish;
7. Shaxsning kasbiy shakllanishiga psixologik yordam xamda insonning kasbiy xayoti davomida yordam berish, qullab-quvvatlash;
8. Kasbiy maslahat, kasbiy ma’lumotning shaxsiy rivojlantiruvchi psixologik jixatlari, attestatsiyadan o‘tkazish, kasbiy rivojlanish psixotexnikasi, kasbiy korrektsiya va reabilitatsiya, kasbdan ketishga psixologik tayyorgarlik borasidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Kasbiy shakllanish jarayonida inqirozlar, to‘qnashuvlar, destruktiv o‘zgarishlar bo‘lib o‘tishi mumkin. Bu jarayonning tezligi biologik va ijtimoiy omillarga, shuningdek tasodifiy xolatlarga, xayotiy muxim kasbiy voqealarga bog‘lik bo‘ladi. Kasbiy shakllanish - bu shaxs rivojlanishining katta bir qismini o‘z ichiga olib, u kasbiy maqsadlarning tarkib topishidan boshlab, kasbiy hayotning tugallangungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu geteroxron jarayondan optatsiya, ya’ni kasbiy ta’lim va tayyorgarlik, profadaptatsiya, professionalizm xamda maxorat boskichlarini ajratish mumkin. Kasb psixologiyasining asosiy kontseptual qoidalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda kasb tanlash va kasbiy shakllanish jarayoni ularning kelajak hayotini belgilovchi muhim bosqichdir. To‘g‘ri yo‘naltirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali ongli kasb tanlashga erishish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta’minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2012.

3. Аграшенков А.В. Психология на каждый день: советы, рекомендации, тесты. – СПб., 2004.
4. Адизова Т.М. Психологические методы изучения личности учащегося в процессе общения. – Ташкент, 2000.
5. Ziyo.net

